XALQ DEPUTATLARI SO‘X TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Сўх тумани А.Темур -95, +998 73 462 5054, https://t.me/suxtumanikengashi

2025-yil 30-dekabr VII-16-123-11-159-K/25 So‘x tumani

So‘x tumanining 2026 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025 yil 29 dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 29-dekabrdagi 01/07-17/10016-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari So‘x tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025 yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, So‘x tuman budjetining 2026 yilgi daromadlari **26.2 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **88.1 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **61.8 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek So‘x tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **243.0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. So‘x tuman budjeti daromadlarining 2026 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq;

So‘x tuman budjetidan 2026 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. So‘x tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026 yil uchun **1.1 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **3-ilovaga** muvofiq,

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **4-ilovaga**;

noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorlar **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. So‘x tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev, So‘x tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Iskandarov), So‘x tuman soliq inspeksiyasi (F.Turaboev) bilan birgalikda 2026 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari So‘x tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda So‘x tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (N.Sadirbekov) hamda So‘x tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SAYIDMUSAYEV SAYIDBAXROM SAYIDBURXONOVICH**

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-123-11-159-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

Mahalliy budjetlarining daromadlari bo‘yicha
2026-yil uchun BALANSI

№	Daromad turlari	So‘x tumani
	JAMI	**26 284 000**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 186 000
2	Foyda solig‘i	517 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	2 716 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 998 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	867 000
	Aksiz solig‘i jami	4 665 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*4 665 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	781 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	730 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 148 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 671 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	162 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	177 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	175 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-70 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0

14	Davlat boji	2 432 000
15	Yig‘imlar	681 000
16	Jarimalar	2 548 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	5 000
1	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	0
2	Mobil aloqa xizmatini ko‘rsatganlik uchun aksiz solig‘i	0
3	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i	0
V.	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlari**	***18 483 500***
VI.	**Mahalliy budjetlarning jami xarajatlari**	**88 819 141**
VII.	**Transfertlar**	**70 335 641**

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-123-11-159-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

So‘x tumani mahalliy budjetlarining 2026-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	So‘x tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**88 069 061**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*33 596 225*
	shundan:	*x*
	"Mening maktabim"	*2 039 400*
2	Madaniyat bo‘limi	*4 104 878*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*3 177 628*
4	Sport bo‘limi	*3 374 896*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 566 561*
6	Qishloq xo‘jaligi sohasi	*1 711 386*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 947 002*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 050 640*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*15 990*
10	Hokimiyat	*21 055 995*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 050 640*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 566 561*
	Madaniyat bo‘limi	*128 858*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*3 177 628*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*1 240 665*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*9 888 000*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*126 993*
	Zahira jamg‘armasi	*1 151 317*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 032 070*
	shundan:	*x*
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*139 070*
	Axborot-kutubxona markazlari	*893 000*

12	Obodonlashtirish boshqarmasi	14 435 790
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-123-11-159-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	MFYlar nomi	2026 yil	
			Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (ming.so‘m)
1	So‘x t	Rovon	1,25	51 656
2	So‘x t	Navobod	1,05	43 391
3	So‘x t	Yangiariq	1,20	49 590
4	So‘x t	Oftobru	1,05	43 391
5	So‘x t	Sarikanda	1,20	49 590
6	So‘x t	Saribozorcha	1,20	49 590
7	So‘x t	Kal’a	1,20	49 590
8	So‘x t	Xazrati ali	1,20	49 590
9	So‘x t	Lenburg	1,20	49 590
10	So‘x t	Tul	1,15	47 524
11	So‘x t	Kalacha	1,15	47 524
12	So‘x t	Devayron	1,15	47 524
13	So‘x t	Gaznov	1,15	47 524
14	So‘x t	Chashma	1,15	47 524
15	So‘x t	Zangat	1,15	47 524
16	So‘x t	Demursad	0,95	39 259
17	So‘x t	Guliston	0,95	39 259
18	So‘x t	Chumokcha	1,15	47 524
19	So‘x t	Sux	1,15	47 524
20	So‘x t	Mulgon	1,15	47 524
21	So‘x t	Xushyor	0,75	30 994

22	So‘x t	Sharqobod	0,75	30 994
23	So‘x t	Qizilkiq	0,75	30 994
24	So‘x t	Sebzor	0,75	30 994
25	So‘x t	Qaqir	0,75	30 994

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-123-11-159-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	MFY lar nomi	2026 yil	
			Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (so‘m)
1	So‘x t	Rovon	1,31	462,4
2	So‘x t	Navobod	1,09	384,8
3	So‘x t	Yangiariq	1,26	444,8
4	So‘x t	Oftobru	1,09	384,8
5	So‘x t	Sarikanda	1,26	444,8
6	So‘x t	Saribozorcha	1,26	444,8
7	So‘x t	Kal’a	1,26	444,8
8	So‘x t	Xazrati ali	1,26	444,8
9	So‘x t	Lenburg	1,26	444,8
10	So‘x t	Tul	1,21	427,1
11	So‘x t	Kalacha	1,21	427,1
12	So‘x t	Devayron	1,21	427,1
13	So‘x t	Gaznov	1,21	427,1
14	So‘x t	Chashma	1,09	384,8
15	So‘x t	Zangat	1,09	384,8
16	So‘x t	Demursad	0,99	349,5
17	So‘x t	Guliston	0,99	349,5
18	So‘x t	Chumokcha	1,21	427,1
19	So‘x t	Sux	1,21	427,1
20	So‘x t	Mulgon	1,21	427,1

21	So‘x t	Xushyor	0,79	278,9
22	So‘x t	Sharqobod	0,79	278,9
23	So‘x t	Qizilkiyoq	0,79	278,9
24	So‘x t	Sebzor	0,79	278,9
25	So‘x t	Qaqir	0,79	278,9

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-123-11-159-K/25 -son
qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi

so‘mda

T/r	Hududlar	2026 yil uchun			
		qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
		Koeffitsient	Mutloq qiymat	Koeffitsient	Mutloq qiymat
1	So‘x tumani	1,05	5 618,0	1,05	5 190,0

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-123-11-159-K/25 -son qaroriga
6-ilova

So‘x tumani bo‘yicha Yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi

T/r	Hududlar	2026 yil uchun							
		Iktisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun			Alkogolsiz ichimlik larni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulot larini ishlab chiqarish uchun			Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti					
		Koeff itsient	Stavka	Koeff itsient	Stavka	Koeff itsient	Stavka	Koeff itsient	Stavka

	So‘x tumani	1,07	801,0	1,07	974,0	1,07	43 506,0	1,12	17 976,0

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-123-11-159-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Soliq solish maqsadida qo‘llaniladigan ko‘chmas mulk ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorlar

so‘mda

№	Hudud nomi	2026 yil uchun			
		1 m.kv turar joylar uchun		1 m.kv noturar joylar uchun	
		Koef fitsient	Yakuniy stavkasi	Koef fitsient	Yakuniy stavkasi
1	So‘x tumani	1,05	6 195,00	1,05	12 390,0